

## ARAB TILIDA SHART MAYLINING SEMANTIKASI

Nosirjonov Muhammadamin Sunnatjon o'g'li

*Alfraganus universiteti*

*2-kurs arab filologiyasi talabasi*

Tursunaliyeva M.A.

*Ilmiy rahbari:*

Aslida arab nahvi kitoblarida fe'l mayli degan atamaning o'zi mavjud emas. Binobarin, arab tilida fe'lning shart maylida kelishi, ya'ni fe'lning jazm yoki majzum holati, fe'l kategoriyasi bilan emas, balki maxsus yuklamalar bilan bog'liq. Fe'llarning shart (jazm) holatida kelishini talab qiluvchi yuklamalar arab nahvida "hurufu-sh-shart" – shart yuklamalari deb ataladi..

Arab tili grammatikasiga oid mahalliy hamda xorijiy kitoblarda "shart mayli" tushunchasi borasida bir necha izohlar berib o'tilgan<sup>17</sup>. Mazkur tushuncha "shart mayli" xarakteri, uning xususiyatlarini to'liq ochib bera olmaydi, chunki bu shakldagi fe'l real-shartli ish-harakatni faqatgina shart maylini talab qiluvchi yuklamalar bilan birga ifodalay oladi. Boshqacha qilib aytganda, shart maylidagi fe'l faqatgina shartni bildiravermaydi, bu shakl boshqa yuklamalar bilan birga kelganda, turli vazifalarni bajaradi.

Shart mayli (jazm) shaklini talab qiluvchi yuklamalar soni arabshunos olimlarning tadqiqotlarida turlicha ko'rsatiladi. Masalan, rus olimlaridan B. M. Grande (o'n to'rtta)<sup>18</sup>, A. A. Kovalyov va Sh. G. Sharbatovlar (asosiy o'nta)<sup>19</sup>, V. G. Lebedev va L. S. Tyurevalar (asosiy o'n bitta)<sup>20</sup>, V. E. Shagal, N. M. Merekin va F. S. Zabirovlar (asosiy sakkizta)<sup>21</sup> shart yuklamalarini qayd etadilar. O'zbek tilshunos-arabshunoslari – N. Ibrohimov va M. Yusupovlar (asosiy o'nta)<sup>22</sup>, B. Z. Xalidov (asosiy ettita), E. Talabov (asosiy sakkizta)<sup>23</sup> yuklamalarni ajratadilar. Mahalliy tadqiqotlarda jazm shaklini talab qiluvchi yuklamalar haqida to'liqroq ma'lumotlarni A. Hikmatovning kitobida topish mumkin. U o'n to'rtta yuklamani keltiradi:

<sup>17</sup> Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskem osveshenii. – M., 2001; Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yazika. – M., 2001; Lebedev V.G., Tyureva L.S. Prakticheskiy kurs arabskogo literaturnogo yazika. V 2-x ch. Ch.2. Normativniy kurs. – M., 2005; Xalidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika. – T., 1981; Shagal V.E., Merekin N.M., Zabirov F.S. Uchebnik arabskogo yazika. – M., 1993; Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T., 1997; Talabov E. Arab tili. – T., 1993 va boshqalar.

<sup>18</sup> Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskem osveshenii. – M., 2001. – S. 510.

<sup>19</sup> Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yazika. – M., 1969. – S. 475.

<sup>20</sup> Lebedev V.G., Tyureva L.S. Prakticheskiy kurs arabskogo literaturnogo yazika. V 2-x ch. Ch.2. Normativniy kurs. – M., 2005. – S. 423–425.

<sup>21</sup> Shagal V.E., Merekin N.M., Zabirov F.S. Uchebnik arabskogo yazika. – M., 1993. – S. 303–304.

<sup>22</sup> Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T., 1997. – B. 116.

<sup>23</sup> Talabov E. Arab tili. – T., 1993. – B. 284–285.

إِنْ، لَمْ، لَمَّا، لـ (لَامُ الْأَمْر)، لـ (لَاءُ النَّهْي)، مَا، أَيْ، مَتَّى، مَهْمَا، أَيْنَ، أَنَّا، كُلَّمَا، حَيْثُمَا<sup>24</sup>

O'zbek nahvshunosi S. Bekpo'latning kitobida ushbu yuklamalar eng to'liq ko'rsatilgan bo'lib, ularning soni o'n oltitani tashkil qiladi:

لَمْ، لَمَّا، لَامُ الْأَمْر، لـ (لَاءُ النَّاهِيَة)، إِنْ، إِذْمَا، مَنْ، مَاهْمَا، مَتَّى، كَيْفَمَا، أَيْ، أَيْانَ، أَنَّى، حَيْثُمَا<sup>25</sup>

Mashhur arab nahvshunoslari Xifni Nasif, Mustafa G'alayiniy, Antua Dahdah, Fuad Ne'mat va boshq. "shart mayli" (ya'ni, jazm yoki majzum)ni talab qiluvchi o'n oltita yuklamalarni ajratib, ularga batatsil ta'rif keltirishadi.

لَمْ، لَمَّا، لَامُ الْأَمْر، لـ (لَاءُ النَّاهِيَة)، إِنْ، إِذْمَا، مَنْ، مَاهْمَا، مَتَّى، كَيْفَمَا، أَيْ، أَيْانَ، أَنَّى، حَيْثُمَا، كَيْفَمَا، أَيْ.<sup>26</sup>

Mazkur o'n oltita yuklama fe'lni jazm holatda kelishini talab qilib, ikkita guruhga quyidagicha bo'linadi:

Birinchi turi to'rtta yuklamadan iborat bo'lib, ular o'zidan keyin bitta fe'lni jazm shaklida bo'lishini talab qiladi, ammo shart mazmunini ifodalamaydi. Bu yuklamalar quyidagilar:

لَمْ، لَمَّا، لَامُ الْأَمْر، لـ (لَاءُ النَّاهِيَة).

لَمْ: أَنَا لَمْ أَعْدَ إِلَيْكَ وَلَنْ أَعْوَدَ أَبَدًا مَاهْمَا إِسْتَرْحَمْتُ دَقَّاتُ قَبْيٍ.

*Men seni oldingga qaytmadim va hech qachon ham qaytmayman, garchi yuragim tepkilari o'tinib so'rasalar ham.*

لَمَّا: لَمَّا يَثْمَرُ بَسْنَائِنَا وَقَدْ أَثْمَرَتِ الْبَسَاتِينَ.

*Boshqa bog'lar meva berdi hamki bizning bog'miz hanuzgacha meva bergani yo'q.*

لَامُ الْأَمْر: لِيُلْزَمُ كُلَّ إِنْسَانٍ حَدَّهُ.

*Har bir inson o'z chegarasi (o'rni)ni bilsin.*

لَـ (لَاءُ النَّاهِيَة): لَا تَئِسْ مِنْ رَحْمَةِ اللهِ.

*Allohning rahmatidan noumid bo'lma.*

Ikkinci turi o'n ikkita bo'lib, o'zidan keyin ikkita fe'lni jazm holatiga kelishi talab qiladi: birinchisi shart, ikkinchisi uning javobi bo'lib keladi. Bu yuklamalar quyidagilardir:

إِنْ، إِذْمَا، مَنْ، مَا، مَاهْمَا، مَتَّى، أَيْانَ، أَيْنَمَا، أَنَّى، حَيْثُمَا، كَيْفَمَا، أَيْ.

إِنْ: إِنْ تَصْبِرْ تَنَلْ.

*Agar sabr qilsang etasan.*

إِذْمَا: إِذْمَا تَتَعَلَّمْ تَتَقدَّمْ.

*Ta'lim olsang peshqadam bo'lasan.*

مَنْ: مَنْ طَلَبَ الْعَلِيَسْهَرَ الْلَّيَالِي.

<sup>24</sup> Xikmatov A. Arab tili grammatikasidan saboqlar. – T., 2002. – B. 22–24.

<sup>25</sup> Bekpulat S. Nahv asoslari. – T., 2005. – B. 17.

<sup>26</sup> Xifni Nasif, Muhammad Diyab, Mustafa Tamum, Muhammad Salih. Ad-durus an-nahviyya. – Misr, al-Iskandariyya: Darul aqida, 2007; G'alayiniy M. Jami' ad-durus al-'arabiyya. – al-Qahira: Darul g'ad al-jadid, 2007; Fuad Ni'mat. Mulaxxas qava'id al-lug'at al-arabiyya. – Misr: al-Qahira, 1994; Antuan ad-Dahdah. Mu'jam qava'id al-lug'at al-'arabiyya. – Bayrut, 1992. (arab tilida)

*Kimki oliylikni istasa, kechlarni bedor o ‘tkazsin.*

مَا: مَا تَحْصُلُ فِي الصِّغْرِ يَنْفَعُكَ فِي الْكِبَرِ.

*Yoshlikda nimaniki yig ‘gan bo ‘lsang, ulg ‘ayganingda senga foyda beradi.*

مَهْمَا: مَهْمَا تُبْطِنْ تُظْهِرْ الأَيَّامْ.

*Garchi sen uni yashirsang-da, kunlar uni oshkor qiladi.*

مَتَى: مَتَى يَصْلَحُ قَلْبُكَ تَصْلَحُ جَوَارِحُكَ.

*Qachonki qalbing yaxshi bo ‘lsa, tashqi ko ‘rinishing ham yaxshi bo ‘ladi.*

أَيَّانْ: أَيَّانْ تَحْسِن سَرِيرَتَكَ تَحْمَد سِيرَتَكَ.

*Qalbing chiroyli bo ‘lgandagina xulqing maqtaladi.*

أَيْنَمَا: أَيْنَمَا تَنْوِيْجَهُ تَصادِفُ رِزْقَكَ.

*Qayergaki yuzlansang rizqinga ro ‘baro bo ‘lasan.*

أَنَّى: أَنَّى يَذْهَبُ ذُو الْمَالِ يَجِدُ رَفِيقًا.

*Davlatmand kishi qaerga borsa, do ‘stini topadi.*

حَيْثُمَا: حَيْثُمَا تَسْتَقِمُ يَقْدِرُ لَكَ اللَّهُ نِجَاحًا.

*Qayerda to ‘g ‘ri bo ‘lsang, Alloh senga muvaffaqiyat ato qiladi.*

كَيْفَمَا: كَيْفَمَا تَعْاملُ إخْوَانَكَ يَعْامِلُوكَ.

*Birodarlaringga qanday muomala qilsang, ular ham senga shunday muomala qiladi.*

أَيُّ: أَيُّ إِنْسَانٌ يَحْتَرِمُ أَبَاهُ يَحْتَرِمُ مَنْ إِبْنَهُ<sup>27</sup>.

*Qaysi inson otasini hurmat qilsa, o ‘g ‘lidan hurmat ko ‘radi.*

Demak, aytishimiz mumkinki, shart mayli quyidagi holatlarda ishlataladi:

1) shart maylini talab qiluvchi to’rtta yuklama ta’sirida yuzaga keladi, ammo shart mazmunini bermaydi;

2) shart ergash gapli qo’shma gaplarda (shart ergash gapning va bosh gapning kesimlari o’n ikkita yuklama ta’sirida shart maylida keladi). Gapda shartni bildiruvchi xususiyatlarni ifodalashda fe’l-kesimning shakli, yuklamalar va predikativ qismlarning ketma-ketlik tarkibi muhim o’rin tutadi. Arab tili sintaksisi xususiyatlaridan biri – bu so‘zlarining qat’iy tartibi va moslashuvi.

Aytib o’tish kerakki, yuqorida zikr etilgan shart yuklamalarini hosil qiluvchi ayrim so‘zlar (ya’ni, مَنْ، مَتَى، أَيْنَ، أَيْ) sodda gaplar tarkibida fe’lga ta’sir qilmaydi.

Bu olmoshlar o’z ma’nolarini saqlab qolgan holda, shartni bildiruvchi fe’liy gaplarda shart yuklamalari vazifasida kelishi mumkin va fe’lning jazm holatida bo‘lishini talab qiladi. Bunday so‘zlar “in (إن) vazifasida keluvchi ismlar”

(الْأَسْمَاءُ الَّتِي تَقْعُدُ مَوْقِعَ إِنْ) deb nomlanadi

2. Ular quyidagilar:

A) umumlashtiruvchi olmosh:

1) ”kimki, agar kimki”, masalan:

مَنْ أَفْشَى السِّرَّ فَلَيْسَ بِأَمِينٍ<sup>28</sup>.

<sup>27</sup> Fuad Ni’mat. Mulaxxas qava’id al-lug‘at al-arabiyya. – Misr: al-Qahira, 1994. – B. 176–179.

*Kimki sirni fosh qilsa, u xavfsizlikda bo ‘lmaydi (xavfsizlikni yo ‘qotadi).*

منْ يَعْمَلُ سُوءًا يُجْزَ بِهِ وَ مَنْ يَفْعُلُ الْخَيْرَ يَجْزَ عَلَيْهِ.<sup>29</sup>

*Agar kimki yomonlik qilsa, u bilan jazo oladi, kimki yaxshilik qilsa, uning mukofotini oladi.*

2) مَهْمَماً “nimaniki”, “garchi”, masalan:

مَهْمَماً تُبْطِنْ ثُظْهِرْهُ الْأَيْ اَمْ.

*Garchi sen uni yashirsang-da, kunlar uni oshkor qiladi.*

3) مَمَا “nimaniki”, masalan:

مَا تَفْعَلُوهُ فِي الدُّنْيَا تَلَاقُوهُ فِي الْآخِرَةِ.<sup>30</sup>

*Bu dunyoda nimaniki qilsangiz, oxiratda o’shani olasiz.*

4) أَيْ َّاً “qaysiki, qaysi”, masalan:

أَيْ كِتَابٍ تَقْرَأُ تَسْتَ قِدْ.

*Qaysi kitobni o ‘qisang ham, foyda olasan.*

أَيْ يَوْمٍ شُسَافِرْ أَسَافِرْ مَعَكِ.<sup>31</sup>

*Qaysiki kunda safarga ketsang ham, men sen bilan ketaman.*

B) “makon va zamon ravishlari” ma’nosini bildiruvchi so‘zlar fe’li jumlalarda shartni ifodalayotganda, fe’lni jazm holatiga qo‘yadi.

Ular “hurufu-sh-shart ma’nosidagi hollar” deb nomlanadi:

1) مَهْمَى “qachon, qachonki”

مَهْمَى يَصْلَحْ بَا طِنَّكَ يَصْلَحْ ظَاهِرُكَ.<sup>32</sup>

*Qachonki qalbing to‘g‘ri (yaxshi) bo‘lsa, tashqi ko‘rinishing ham yaxshi bo‘ladi.*

1) أَيْنَ َّاًينَ “qaerda, qaerdaki”

أَيْنَ تَكُنْ تَكْرَم

*Qayerda bo ‘sang ham, izzat-hurmat olasan.*

2) إِذْمَا “qachon, qachonki”

إِذْمَا تَتَعَلَّمْ تَتَقَدَّمْ.<sup>33</sup>

*Qachonki ta ‘lim olsang, rivojlanasan (peshqadam bo ‘lasan).*

3) آنَّى “qachonki, qandayki, qaerdaki”

آنَّى يَدْهَبْ صَاحِبْ المَالِ يُكَرِّمْ.

*Davlatmand (boy) odam qaerga borsa, izzat-hurmatda bo ‘ladi.*

4) أَيَّانَ َّاًيانَ “qachonki”

أَيَّانَ تَسْأَلَنِي أَجِبَكَ.<sup>34</sup>

*Qachonki mendan so ‘rasang, senga javob beraman.*

<sup>28</sup> Antuan ad-Dahdah. Mu’jam qava’id al-lug‘at al-’arabiyya. – Bayrut, 1992. – B. 144.

<sup>29</sup> O’sha asar. –B. 144.

<sup>30</sup> Fuad Ni’mat. Mulaxxas qava’id al-lug‘at al-’arabiyya. – Misr: al-Qahira, 1994. – As-safha 177.

<sup>31</sup> Antuan ad-Dahdah. Mu’jam qava’id al-lug‘at al-’arabiyya. – Bayrut, 1992. – As-safha 144

<sup>32</sup> O’sha maba.-B. 144

<sup>33</sup> Fuad Ni’mat. Mulaxxas qava’id al-lug‘at al-’arabiyya. – Misr: al-Qahira, 1994. – As-safha 178..

<sup>34</sup> Antuan ad-Dahdah. Mu’jam qava’id al-lug‘at al-’arabiyya. – Bayrut, 1992. – As-safha 144.

V) ayrim so‘zlar (ya’ni, so‘roq olmoshlar) fe’liy gaplarda маюкламаси bilan birga kelganda, fe’lning jazm shaklida kelishini talab qiladi:

1) “nimaniki” — نِيْمَا (أَيْمَا)

2) ْ— “kimniki” كِيمَن (أَيْمَن)

3) “qaerdaki” — قَيْدَمَا (أَيْمَا)

أَيْمَاتُكُونُ وَإِذْرُكُمْ الْمَوْتُ.<sup>35</sup>

Qaerdaki bo‘lsangiz ham, o‘lim muqarrar..

4) “qaerdaki, qaerdan” — قَيْدَمَا (أَيْمَماً)

أَيْمَماً تَنْزَلُ تُكْرَمٌ.

*Qayerda to ‘xtasang ham, izzat-hurmatda bo‘lasan.*

5) “har qachonki” — حَلْمًا (أَلْمًا)

أَلْمًا ثُقُنْ العَمَلَ تَبْلُغُ الْأَمْلَ.

*Har qachonki ishni mukammal (puxta) qilsang, orzuingga yetasan.*

6) “qanday” — كِيفَمَا (أَكْيَفَمَا)

كِيفَمَا ثُعَامِلُ النَّاسُ يُعَامِلُوكَ.

*Odamlarga qanday muomala qilsang, ular ham senga shunday qiladilar.*

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “hurufu-sh-shart” shart ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida qo‘llaniladi. Arab tili me’yoriy grammatikasida shart ergash gapli qo‘shma gaplar undagi ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasisligi shartidan kelib chiqib, ikki turga bo‘linadi. Bosh gapdagi ish-harakatning amalga oshish sharti real (“Yaxshi o‘qisang, tushunasan” kabi) va noreal (“Yaxshi o‘qiganingda edi, tushunarding” kabi) bo‘lishi mumkin. Arab tilida, odatda, shart yuklamasi bilan kelayotgan shart ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

I. Real shartni bildiruvchi shart ergash gap oldidan ما يُعَلَّمُونَ ، إِنَّ ، مِنْ ، مَا يُعَلَّمُونَ yuklamalaridan biri ishlatalidi. إنْ يُعَلَّمُونَ yuklamasi ishtirokidagi gaplarda bosh gapdagi fe’l ham, ergash gapdagi fe’l ham o‘tgan zamonda yoki fe’llarning biri shart maylida, ikkinchisi esa o‘tgan zamonda kelishi, yoxud buning aksi ham bo‘lishi mumkin. Biroq, fe’l shakllarining bunday xilma-xilligi tarjimaga ta’sir ko‘rsatmaydi, fe’llar anglayotgan ish-harakat hozirgi yoki kelasi zamonni bildiradi. Umumiy qilib aytganda, إنْ يُعَلَّمُونَ yuklamasi ishtirokidagi real shartni bildiruvchi ergash gap quyidagi variantlarga ega bo‘lishi mumkin:

*Agar sen yozsang, men ham yozaman:*

1) إنْ كَتَبْتَ كَتَبْتُ.

2) إنْ كَتَبْتَ أَكَتْبَ.

3) إنْ تَكْتُبْ كَتَبْتُ.

4) إنْ تَكْتُبْ أَكَتْبَ.

إنْ يُعَلَّمُونَ bilan kelgan ergash gapda fe’l o‘tgan zamon shaklida, bosh gapdagi fe’l kelasi zamonda ham bo‘lishi mumkin:

<sup>35</sup> An-Nisa surasi, 78 oyat. –B.36



*Agar ba'zi odamlar inqilob tugadi deb xayol sursa yoki orzu qilsalar, ular Adashgandirlar.*

2) agar bosh gapdagi fe'l buyruq, buyruq inkor hamda xohish-istak shaklida bo'lsa, masalan: ◯

وَ إِذَا مَرَضْتَ فَإِذْهَبْ إِلَى الطَّبِيبِ<sup>43</sup>.

Agar kasal bo'lsang, shifokorga bor.

إِذَا طَبِيبٌ نَصَحٌ لَكَ فَأُعْمَلْ

Ba'zan noreal shartni ifodalashda bosh gap birikma olmosh bilan ɍ yuklamasidan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan,

لَوْ لَا طَبِيبٌ لَا سَاعَةٌ حَالَةُ الْمَرِيضِ<sup>44</sup>.

*Agar shifokor bo'lmaganida edi, bemorning ahvoli yomonlashar edi.*

لَوْ لَا هُنْكَتْ تَعْسَاهُ<sup>45</sup>.

*Agar u bo'lmaganida edi, men baxtsiz bo'lgan bo'lar edim<sup>46</sup>.*

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskem osveščenii. – M., 2001. – S. 510.
2. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yazika. – M., 1969. – S. 475.
3. Lebedev V.G., Tyureva L.S. Prakticheskiy kurs arabskogo literaturnogo yazika. V 2-x ch. Ch.2. Normativniy kurs. –M., 2005. – S. 423–425.
4. Shagal V.E., Merekin N.M., Zabirov F.S. Uchebnik arabskogo yazika. – M., 1993. – S. 303–304.
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T., 1997. – B. 116.
6. Talabov E. Arab tili. – T., 1993. – B. 284–285.
7. Xikmatov A. Arab tili grammatikasidan saboqlar. – T., 2002. – B. 22–24.
8. Bekpulat S. Nahv asoslari. – T., 2005. – B. 17.
9. Рустамов А.Э. Шарт юкламалари (хуруфу-ш-шарт)нинг синтактик хусусиятлари// Sharq Mash'ali №1// Т.2020. –B.108-11
10. Samiyeva, G. (2024). Ijtimoiy sohada maqsadli jamg 'armalar va ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirishning xorij tajribasi. THE INNOVATION ECONOMY, 2(02).
11. Самиева, Г. Т. (2024). Анализ Бытового Обслуживания В Республике Узбекистан. Miasto Przyszłości, 51, 167-171.

<sup>43</sup> Antuan ad-Dahdah. Mu'jam qava'id al-lug'at al-'arabiyya. – Bayrut, 1992. – As-safha 145.

<sup>44</sup> Fuad Ni'mat. Mulaxxas qava'id al-lug'at al-arabiyya. – Misr: al-Qahira, 1994. – As-safha 178.

<sup>45</sup> Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T., 1997. – B. 394

<sup>46</sup> Рустамов А.Э. Шарт юкламалари (хуруфу-ш-шарт)нинг синтактик хусусиятлари// Sharq Mash'ali №1// Т.2020. –B.108-116

12. Самиева, Г. Т. (2024). РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ СЛУЖИТ ПОВЫШЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ. Экономика и социум, (5-1 (120)), 1597-1600.
13. Fayziyeva, S., Samiyeva, G., & Yuldasheva, S. (2024). Possibilities of using economic mechanisms when organizing fruit and vegetable cooperatives. In E3S Web of Conferences (Vol. 539, p. 02024). EDP Sciences.
14. Samiyeva, G. (2023). AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI. THE INNOVATION ECONOMY, 1(03).
15. Samiyeva, G. T. (2023). IJTIMOIY FONDLAR VA MAQSADLI JAMG ‘ARMALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.
16. Samiyeva, G. (2023). O ‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI. THE INNOVATION ECONOMY, 1(02), 35-49.
17. Bo‘ronov, N. (2024). MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILIY MODUL MEXANIZMI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 454-457.
18. Nazim, B. R. (2022). O ‘zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba’zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o ‘rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov “Nido” dostonining til xususiyatlari haqida so. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 500-504.
19. Буронов, Н., & Шофуломов, Д. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.
20. Bo‘ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI ASRDA DINIY EKSTREMIZM TAHDIDLARI. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 289-290).